

5/2022,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00061)



O'ZBEKISTONDA ISHSIZLARNING PSIXO-EMOTSIONAL HOLATINI O'RGANILISHI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi. Toshkent, O'zbekiston.

irgashevagulbahor77@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a10

Annotatsiya

Mazkur maqolada ishsizlarning psixo-emotsional holatlaridagi buzilishlar, ishsizlik muammosini yoritishda tarixiy-tahliliy yondashuvlar, ishsizlik tendensiyalari, tuzilmaviy xususiyatlari, ishsizlardagi ruhiy holatlarning funksional tuzilmalari va o'z-o'zini boshqarish vositalari, ishsizlardagi kutish bilan bog'liq vaziyatlar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda 18-60 yosh oralig'idagi ishsizlarning psixo-emotsional holatlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan emperik so'rovnoma orqali o'rganildi va yakuniy natijasiga ko'ra tahlil qilindi hamda yechimi so'ralgan masala bo'yicha ilmiy-amaliy taklif ishlab chiqildi.

Kalit so'zlari: ishsizlik, mehnat bozori, bandlik, psixo-emotsional holat, so'rovnoma, depressiya, stress, jinoyat

Аннотация

В статье рассматриваются расстройства психоэмоциональных состояний безработных, историко-аналитические подходы к проблеме безработицы, тенденции, структурные особенности безработицы, функциональные структуры психических состояний безработных и средства самоуправления. Также исследовано психоэмоциональное состояние безработных в возрасте от 18 до 60 лет в Узбекистане с помощью разработанного автором и проанализированного по конечному результату эмпирического опросника, а также научно-практического предложения по вопросу о том, что запрошенное решение было разработано.

Ключевые слова: безработица, рынок труда, занятость, психоэмоциональное состояние, опрос, депрессия, стресс, преступность.

Abstract

This article examines disorders in the psycho-emotional states of the unemployed, historical-analytical approaches to the unemployment problem, trends, structural features of unemployment, functional structures of the mental states of the unemployed and means of self-management. Also, the psycho-emotional conditions of the unemployed between 18-60 years of age in Uzbekistan have been studied through an empirical questionnaire developed by the author and analyzed according to the final result, as well as a scientific-practical proposal on the issue that asked for a solution has been developed.

Key words: unemployment, labor market, employment, psycho-emotional state, survey, depression, stress, crime

Kirish

Jahon amaliyotidan ma'lumki, har qanday mamlakat iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bandlik darajasini oshirishga katta ahamiyat qaratadi. Shuningdek, ishsizlik darajasini

kamaytirish orqali jamiyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni oldini olish yo'lida chora-tadbirlarni amalga oshirishga harakat qiladi.

Pandemiya davrida O'zbekistonda ishsizlik 11,5 % tashkil etgani holda, 2019 yilda bu ko'rsatkich 1335,3 ming kishini (9,0 %) tashkil etgan hamda iqtisodiy faol aholi soni 14876,4 ming kishi bu daraja ko'rsatkichi foizda 75,0% ni, ulardan iqtisodiyotda bandlar 13541,1 ming kishi (68,3 %) bo'lib, ishsizlik darajasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ishsizlarning eng asosiy qismini 18-30 yoshdagi yoshlar ekanligi aniqlandi [1]. Mazkur masala yuzasidan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham iqtisodiyotni rivojlantirish, ishsizlar sonini kamaytirish bo'yicha taklif va buyruqlar berdilar [2]. Buning natijasida, ish o'rinlarini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish belgilandi.

Shuni ta'kidlash joizki, uzoq vaqt inson ish bilan ta'minlanmasa, ishsizlik holati yuzaga kelsa, unda psixo-emotsional holatlarining buzilishiga olib keladi. Depressiya, stress, xavotir, bezovtalik, asabiylashish, tushkunlik, beparvolik, umidsizlik, ishonchsizlik, g'azabning kuchayishi, idrokning pasayishi, xotiraning susayishi, diqqatning tormozlanishi, tafakkurning yo'qolishi kabi holatlar yuzaga keladi. Insonlarda bunday psixologik holatlarning yuzaga kelishi, o'z-o'zi uchun, atrofida uchun, eng avvalo jamiyat uchun xatarlidir.

Ishsizlarda bunday psixo-emotsional buzilishlar jamiyatda jinoyatlar, huquqbuzarliklar, o'g'riliklar, o'z joniga qasd qilish, oilalarda ajrimlar sonining ko'payishiga olib keladi. Ishsizlarning psixo-emotsional holati bo'yicha xorijiy olimlarning o'tkazgan tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatadiki, insonlardagi ishsizlik holati jamiyat uchun xavfli ekanligi va uning ketidan keladiga ijtimoiy-iqtisodiy zararlar ma'lum bir sohalar va jamiyat vakillari uchun qimmatga tushishi ochiqlanadi. Tadqiqotlarda ishsizlik ayniqsa, erkaklarda og'ir holatda kechishi kuzatildi. Ularda spirtli ichimliklarning ko'p miqdorda iste'mol qilinishi oqibatida avto halokatlarlar, huquqbuzarliklar, qotiliklar, o'z joniga qasd qilish holatlari, nomusga tajjovuz qilish va boshqa jinoyatlarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni jamlagan holda aytishimiz mumkinki, jamiyatda ishsizlarning psixo-emotsional holatlari buzilishi ketidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni oldini olish yuzasidan vazifalarni ishlab chiqilishga asoslangan tadqiqot ishimiz dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadqiqot mavzusi O'zbekiston uchun yangi mavzu bo'lganligi bois mamlakatimizda ushbu yo'nalish bo'yicha tadqiqot ishlari qilinmaganligiga guvoh bo'ldik. Shuning uchun, mavjud mavzuni o'rganishda ko'proq Amerika, Yevropa va MDH olimlarining ilmiy tadqiqot ishlariga murojaat qildik. Xususan, Michigan universiteti professori Michael Borreroning "Psychological and Emotional Impact of Unemployment" nomli dissertatsiya ishida birinchi navbatda ishsizlarda xavotir hissi yuqori bo'lishini aniqlagan[3], Vashington and Lee universiteti professori Arthur H. Goldsmith "The Psychological Impact of Unemployment and Joblessness" nomli maqolasida erkaklarda ishsizlik natijasida, ayollarga nisbatan psixo-emotsional buzilishlar yuqori darajada bo'lishini aniqlagan [4], Murphy G.C. va Athanasou J.A. larning "The effect of unemployment on mental health" nomli maqolalari bir necha yillik kuzatuvlarni o'z ichiga olib, ularning experementlarida ishtirok etgan ishsizlarda ishsizlik turli xil kasalliklar paydo bo'lishini topishgan. Jumladan, ishsizlarning eng avvalo uyqusizlik yuzaga kelishi va buning oqibatida shu bilan bog'liq bir nechta kasalliklar paydo bo'lishini

aniqlashgan[5]. Shuningdek, Robert L. Jinning “The impact of unemployment on health: A review of the evidence” nomli tadqiqot ishlarida emperik tadqiqotlari natijasida ong ostida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan buzilishlarni topishgan [6]. Ushbu adabiyotlarda ishsizlarning psixo-emotsional holatlaridagi buzilishlar, ishsizlik muammosi, ishsizlardagi ruhiy holatlarning funksional tuzilmalari va o‘z-o‘zini boshqarish vositalari, ishsizlardagi kutish bilan bog‘liq vaziyatlar, ishsiz yoshlarning psixo-emotsional holatlarini o‘rganishda emperik so‘rovnoma o‘tkazish yo‘llari muhim ahamiyatga molik hisoblanib, ushbu tadqiqot ishlaridan ishimiz uchun kerakli bo‘lgan tajribalar o‘zlashtirildi. Shuningdek, yevropalik olimlardan Albaniya universiteti professori Thoroddur Bjarnason va Islandiya universiteti professori Thordis J. Sigurdardottirlarning “Psychological Distress during Unemployment and Beyond: Social Support and Material Deprivation Among Youth in Six Northern European Countries nomli maqolalari o‘rganildi[7]. Xususan, ushbu tadqiqot ishida 6 ta Shimoliy Yevropa mamlakatlarida ishsiz yoshlar orasida jinoyatlarning sodir bo‘lishining asosiy omillaridan biri sifatida ishsizlik ekanligini aniqlashgan.

O‘zbek olimlaridan akademik Q. Abdurahmonovning “Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot” nomli darsligida ishsizlik, ishsizlikning turlari, ishsizlik tendensiyalari va shu bilan bog‘liq bir qancha mavzular nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan[8]. Bundan tashqari, boshqa bir qancha o‘zbek olimlarining ilmiy ishlari o‘rganilib, tadqiqot ishimizning ishsizlik va uning mazmun mohiyatini yoritishda foydalanildi.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqot ishlaridan bizning ilmiy ishimizni ajralib turadigan farqli jihatlari, eng avvalo asosiy bazaviy hissiy holatlarini ifodalovchi o‘z-o‘zini baholash usulidan foydalanilib, so‘rovnoma asosida ishsiz yoshlarning hissiy kayfiyatlarini o‘rganildi va tadqiqot natijasiga ko‘ra ilmiy taklif va xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodlaridan analiz va sintez, taqqoslash, deduksiya va abstraksiyalash usullaridan keng foydalanildi. Jumladan, analiz usuli yordamida turli xalqaro tashkilotlar va olimlarni ishsizlarning psixo-emotsional holatga bergan ta‘riflarini keng o‘rganishda, emperik so‘rovnoma shakllantirishda qanday masalalarga ko‘proq e‘tibor qaratish kerakligi va ushbu masala ketidan kutilish ehtimoli yuqori bo‘lgan va ehtimoli past bo‘lgan omillarni ham ko‘zdan qochirish ketidan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarni tahlil qilishda foydalaniladi. Bu borada K. Izard tomonidan taklif qilingan asosiy bazaviy hissiy holatlarni ifodalovchi o‘z-o‘zini baholash usuli (1976), shaxsning xavotir hissini aniqlovchi Spilberg-Xanin so‘rovnomasi, depressiyani baholovchi Stung shkalasi va farovonlik, faoliyat va kayfiyatni metodikasi va diagnostikasi (Metodika SAN) ahamiyatli.

Qiyoslash metodidan O‘zbekistonda ushbu masalani xorijiy mamlakatlardagi holati bo‘yicha taqqoslashda foydalanadigan bo‘lsak, deduksiya metodi orqali esa muxim nazariy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Abstraksiya metodi bizga, ishsizlarning psixo-emotsional holatini buzilishiga ta‘sir qilayotgan ikkinchi darajali omillarni yo‘q deb faraz qilib, asosiy e‘tiborni asosiy omillar tahliliga qaratishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda ishsizlarning psixo-emotsional holatini o‘rganishga bag‘ishlangan mavzumiz empirik tadqiqotlar o‘tkazishni talab qilib, ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy tadqiqot olib borishning so‘rovnoma usulidan foydalandik. Ushbu so‘rovnomamiz o‘z ichiga 22 ta savollarni qamrab olgan bo‘lib, jumladan, savollar mazmuniga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, so‘rovnomada ishtirok etgan qatnashchilardan demografik, ijtimoiy, ruhiy, ish

stasusi, jamoat orasida o‘zini tutish madaniyati va holati, ijtimoiy tarmoqlardagi ishtiroki, davlat idoralarining ish faoliyati to‘grisidagi bilimi, vaziyatni baholash bo‘yicha yondashuvi va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha munosabati kabi savollarga javoblari asosida tadqiqot olib boriladi. Ushbu so‘rovnoma O‘zbekiston Respublikasining 12 ta viloyati, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tanlab olish usuli (sampling) asosida hozirda ishsiz yoki oldin ishsiz bo‘lgan lekin, hozirda ishlayotgan asosan 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan respondentlar qatnashgan bo‘lib, ularning soni 160 tani tashkil etadi.

Mazkur raqamlar ilmiy tadqiqot usularidan biri bo‘lgan so‘rovnoma usulini o‘tkazish uchun yetarli hisoblanib, so‘rovnomamiz natijalari sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Ushbu tadqiqotimizni davom etirgan holda 1-jadval ma‘lumotlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, respondentlarning demografik holati bo‘yicha natijalar keltirilgan bo‘lib, ushbu demografik ma‘lumotlar so‘rovnoma sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

So‘rovnoma qatnashchilarining demografik xususiyatlarini tavsiflovchi statistik tahlil

O‘zgaruvchilar		Qatnashuvchilar soni	Qatnashuvchilar soni foizda
Jinsi	Erkak	105	65,6
	Ayol	55	34,4
Ta‘lim darajasi	Oliy	122	76,3
	O‘rta-maxsus	30	18,8
	O‘rta	7	4,4
	Tugallanmagan o‘rta	1	0,6
Yoshi	50 yoshdan 60 yoshgacha	1	0,6
	40 yoshdan 49 yoshgacha	11	6,9
	30 yoshdan 39 yoshgacha	41	25,6
	25 yoshdan 30 yoshgacha	66	41,3
	20 yoshdan 24 yoshgacha	36	22,5
	18 yoshdan 20 yoshgacha	5	3,1
Oilaviy ahvoli	Uylanmagan/ turmushga chiqmagan	50	31,3
	Uylangan/ turmushga chiqqan	95	59,4
	Ajrashgan/ yolg‘iz ota yoki ona	15	9,4

Manba: Muallif tomonidan so‘rovnoma asosida ishlab chiqilgan

1-jadval ma‘lumotlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, respondentlarning 105 tasi ya‘ni 65,6 foizini erkaklar tashkil etib, ushbu so‘rovnoma ayollarning ulushi 34,4 foizni egallagan. So‘rovnoma qatnashchilarining egallagan ta‘lim darajasi bo‘yicha taqsimoti esa, oliy ta‘limga ega respondentlar eng katta qismini tashkil etib 122 ta qatnashchini qamrab oladi bu degani ularning mazkur so‘rovnoma ulushi 76,3 foizni qayd etadi. Keyingi o‘rinda o‘rta-maxsus ta‘limini egallagan yoshlar bo‘lib, ular 18,8 foizni va eng kam ishtirok o‘rta ta‘limga ega vakillarni tashkil etadi.

Respondentlarning yoshiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, eng ko‘p so‘rovnoma qatnashchilari 25-30 yosh oralig‘ini tashkil etib, ularning ulushi 41,3 foiz, undan keyingi o‘rinda 30-39 yoshdagi respondentlar 25,6 foiz, 20-24 yoshlilar 22,5 va 18-20 yosh qatnashchilar 3,1 foizni tashkil etgan. Tadqiqot maqsadiga ko‘ra ham so‘rovnoma asosan ishsiz yoshlarni qamrab olish rejalashtirilgan edi va ushbu jadval ma‘lumotlaridan ko‘rib turibmizki, ushbu maqsad muvaffaqiyatli amalga oshgan.

So‘rovnoma qatnashchilarining ishlash statusi, ish izlash darajasi va bandlikka ko‘maklashish markazi haqida fikrlari statistik tahlili

O‘zgaruvchilar		Qatnashuvchilar soni	Qatnashuvchilar soni foizda
Qatnashchilarning ish statusi	Ha rasmiy bandman	78	49,7
	Ha norasmiy bandman	14	8,9
	Yo‘q band emasman	53	33,8
	Rasmiy ishsizman	12	7,6
Ijtimoiy tarmoqlar (internet, turli ijtimoiy saytlar) yordamida ish izlash darajasi	Ha	100	62,5
	Yo‘q	57	35,6
	Internetdan foydalanmayman	3	1,9
Respondentlarning bandlikka ko‘maklashish markazi haqida fikrlari	Ha, a‘lo	3	1,9
	Ha, o‘rta	5	3,1
	Ha, qoniqarli	6	3,7
	Ha, qoniqarsiz	20	12,5
	Ha, umuman ishlamaydi	24	15
	Yo‘q, murojaat qilmaganman	97	60,6
	Bunday markaz borligini bilmayman	5	3,1
Respondentlarning qancha vaqtdan beri ishsizsiz yoki hozirda ishi bor, lekin oldin qancha vaqt ishsiz bo‘lganligi	1 oydan beri	17	10,6
	6 oydan beri	5	3,1
	1 yildan beri	5	3,1
	Uzoq vaqtdan beri	17	10,6
	1 oy	33	20,6
	6 oy	19	11,9
	1 yil	26	16,3
	Uzoq vaqt	38	23,8

Manba: Muallif tomonidan so‘rovnoma asosida ishlab chiqilgan

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida biz respondentlarning ishlash statusi, ish izlash darajasi va bandlikka ko‘maklashish markazi haqida fikrlarini tahlil qilamiz. Mazkur ma‘lumotlar 2-jadvalda keltirilgan bo‘lib, ushbu bosqicha biz qatnashchilarning ish statusi, ijtimoiy tarmoqlar (internet, turli ijtimoiy saytlar) yordamida ish izlash darajasi, bandlikka ko‘maklashish markazi haqida fikrlari, qancha vaqtdan beri ishsizsiz yoki hozirda ishi bor, lekin oldin qancha vaqtdir ishsiz bo‘lganligi haqida javoblarini tahlil qilamiz. So‘rovnoma natijasiga ko‘ra, respondentlarning eng katta qismi ya‘ni 49,7 foizi ha, rasmiy bandman degan javobni belgilashgan. Lekin, so‘rovnomada ishtirok etishdan oldin tushuntirilganidek, hozirda ishlaydi ammo oldin ishsiz bo‘lgan vaqtda o‘zlarida kuzatilgan holatlardan kelib chiqib javoblarni belgilashlari aytilgan va shunga ko‘ra tegishli javoblarni tanlashgan. Keyingi o‘rinda 33,8 foiz javob bilan yo‘q band emasman degan javobni tanlagan respondentlar bo‘lib, undan keyingi o‘rinlarda ha norasmiy bandman 8,9 foiz va rasmiy ishsizman degan javobni belgilaganlar 7,6 foizni tashkil etgan.

Respondentlarning respublika bandlikka ko‘maklashish markazi haqidagi fikrlari afsuski juda salbiy bo‘lib, 60,6 yo‘q, murojaat qilmaganman, 15 foizi yoki 24 nafari ha, umuman ishlamaydi va 12,5 foizi ha, qoniqarsiz degan javobni belgilashgan.

Shu o’rinda ma’lumot sifatida keltirishimiz kerakki, jahon amaliyoti shuni ko’rsatadiki, ishsizlar bilan ishlashda raqamli iqtisodiyotning bir bo’g’ini bo’lgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni to’g’ri tashkil etish nafaqat ishsizlikka to’g’ri yechim topishda qolaversa, kelajakda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo’lgan muammolarni oldini olishda ham muhim ahamiyaga egadir.

Lekin afsuski, respondentlarning fikrlariga ko’ra O’zbekistonda bandlikka ko’maklashish markazining murojaat platformasi qoniqarli darajada ishlamaydi yoki ushbu markaz ishsizlar uchun to’g’ri yechim ko’rsatishlariga shubhalari borligi yoki tashishlaridan eshitgan gap so’zlarga ko’ra ushbu markazga murojaat qilishni ham xohlashmaydi va ushbu markaz faoliyatini qoniqarsiz baholashadi.

Ishsizlarning qancha vaqtdan buyon ishsiz bo’lishgani bo’yicha javobga ko’ra respondentlarning eng katta qismi 1 oydan uzoq vaqtdan buyon degan javobni belgilashgan.

Shuningdek, hozirda ishlaydi lekin, oldin ishsiz bo’lganlarning javobiga ko’ra eng katta ulush bir oy ishsiz bo’lganman va uzoq vaqt ya’ni bir yildan ortiq ishsiz bo’lganman degan javobni tanlashgan.

3-jadval

Ishsizlarda ishsizlik natijasida yuzaga keladigan oilaviy nizolar, ish izlash muddati, muloqot (muomala) madaniyati haqidagi fikrlarning statistik tahlili


O’zgaruvchilar	Qatnashuvchilar soni	Qatnashuvchilar soni foizda
Siz ishsiz bo’lganingiz, oilaviy ta’minot sizning bo’yningizda bo’lsa, oilangizda nizolar sodir bo’ladimi (ishsiz bo’lganingizda)?	Ha	32
	ba’zan	56
	Tez-tez	14
	Yo’q	58
Siz uchun ishni izlash davri qancha muddatgacha davom etishi mumkin	1 oygacha	87
	6 oygacha	38
	1 yilgacha kuta olaman, sabrliaman	19
	Kuta olmayman, ruhiyatimda salbiy o’zgarishlar yuzaga kelishni Boshlaydi	16
Ish izlash davrida insonlar bilan erkin munosabatlarga (muloqot) kirisha olasizmi	Ha, albatta	125
	Yo’q	18
	Bilmadim, o’ylab ko’rmagan ekanman	17
Ish izlash paytida qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketasiz	Qiyinalmayman, oson chiqib ketaman	35
	Dovdirayman, qiyin vaziyatlarda qolib ketaman	16
	Mulohaza qilaman, yo’l topishga intilaman	95
	Jahlim chiqadi, o’zgalarni ayblayman, imkon topaman	14
Odatda siz ish haqida o’ylaganingizda, o’zingizni noqulay sezasiz, yurak	Ha, odatda menda yuqoridagi holatlar yuzaga keladi, o’zimninoqulay his qilaman	63

sohangizda og'riq paydo bo'ladi, qon bosimingiz ko'tariladi, boshingiz og'riydi, organizmingizda charchoqni his qilasizmi?	Yo'q, men har bir ishga ma'suliyat bilan yondashaman	97	60,6
--	--	----	------

Manba: Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan

Yuqoridagi biz tomonimizdan yaratilgan 3-jadvalga ko'ra, so'rovnoma qatnashchilarining ishlash statusi, ish izlash darajasi va bandlikka ko'maklashish markazi haqida fikrlari statistik tahlili so'rovnoma natijalari asosida yoritilgan. Unga ko'ra, Siz ishsiz bo'lganingiz, oilaviy ta'minot sizning bo'yningizda bo'lsa, oilangizda nizolar sodir bo'ladimi (ishsiz bo'lganingizda)? deb so'ralgan savolnomani ham so'rovnomamizga kiritganmiz, chunki ishsiz insonda kunlik ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash uchun yetarli miqdorda moddiy jihatdan ta'minlanmagan yoki pulga ega bo'lmagan bo'lsa, yetishmovchilik natijasida oilada turli nizolar kelib chiqishi tabiiy, buning natijasida oilada ajrimlar sonining ko'payishiga, eng avvalo nosog'lom muhitda tarbiyalayotgan ertemiz kelajagi bo'lgan bolajonlarimizning ruhiyatida buzilishlar yuzaga kelishi aniq, shu maqsaddan ham so'rovnomamizda ushbu savolni kiritdik. So'rovnoma qatnashchilarimiz soni 160ta shundan, 36,2% qatnashchilarimiz yo'q, 35% respondentlarimiz ba'zan nizolar paydo bo'ladi, 20%i ha, 8,8% qatnashchilarimiz tez-tez nizolar, oilaviy urushishlar bo'ladi deb belgilashgan.

So'rovnoma qatnashchilarimizning 9 foizi ishsiz bo'lganimda «Umidsizlik paydo bo'ladi» deb belgilashgan, bundan ko'rinadiki umidsizlik ham psixologiyada eng yuqori buzilish darajasi sifatida qabul qilinadi, insonning faoliyatga nisbatan passiv harakatini yuzaga keltiradi va 9 foizi stress yuzaga keladi deb belgilashganlaridan ko'rinadi, bu juda katta muammodir, chunki stress deyilganda ruhiy zo'riqish, o'ta asabiylashish jarayoni hisoblanadi va stressni ba'zi psixologlarimiz ijobiy jarayon deb hisoblashadi, negaki har bir ishsiz insonda stress yuzaga keladi, ayrim insonlar stress natijasida maqsadlari uchun harakat qilishlari mumkin, ayrimlarida esa stress salbiy ahamiyatga ega bo'lib, u distressga aylanmasligi kerak.



1-rasm. So'rovnoma qatnashchilarining agar ishsiz qolsangiz, sizning ruhiy holatingizda dastlab qanday o'zgarishlar yuzaga keladi degan savolga javoblari

Manba: Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan

Qatnashchilarimizning 6 foizi depressiyaga uchrayman deb belgilashibdi, shuni ta'kidlash o'rinliki, depressiya hozirda eng keng tarqalgan patologiyadir, chunki depressiyaga uchragan inson doimo past va tushkun kayfiyatda yuradi, hozirgi va kelajakka umidsizlik bilan

qaraydi, bunday insonlar ham jamiyat uchun xavflidir. Respondentlarimizning 5 foizi loqayd bo‘laman deyishganidan ko‘rinadiki, kam foiz ishtirokchilarimiz bu javob variantini belgilashgan. Loqaydlik depressiya natijasida yuzaga keladi, loqayd inson o‘zidagi mavjud bo‘lgan ijobiy faoliyatlarni yo‘qotadi, jamiyatda o‘zini keraksizdek tasavvur qiladi.

So‘rovnomamizda mavjud bo‘lgan savollar orasida, ishsiz bo‘lganingizda o‘z - o‘zingizni (kasbiy, ruhiy, jismoniy) rivojlantirasizmi? degan savolga 160 ta qatnashchilarimizdan 96tasi Ha, o‘z ustimda ishlayman deb belgilashgan bo‘lsa, 26 ta qatnashchilarimiz, yo‘q, kayfiyatim yo‘q deyishgan. 25 ta qatnashchilarimiz esa O‘ylab ko‘rishlari kerakligini ta’kidlashgan, qolgan so‘rovnomada qatnashgan 13 ta respondentlarimiz ishsiz bo‘lgan bo‘lishsa, o‘zlarini kasbiy, ruhiy, jismoniy o‘z bilimlarini oshirishga, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lmasliklarini ya’ni yo‘q, xohlamayman deb belgilashgan.

Sizning ishingizga nisbatan qiziqishingiz qolmagan, odatda vaqtni tezlashtirishga intilasiz, ish kuningiz tezroq tugashini xohlaysizmi? degan savolni ham so‘rovnomamizga kiritganmiz, ya’ni buning natijasi o‘laroq, mavjud ishga ega bo‘lgan shaxs, ishidan sovishi, ishdagi turli ziddiyatlar, nizolar natijasida o‘z vazifalariga nisbatan ma’suliyat bilan yondashmasligi ma’lum sabablarga ko‘ra, ishga nisbatan qiziqishi qolmasligi natijasida ishdan bo‘shashi va boshqa ish topguncha ma’lum vaqt ishsiz qolishi mumkin, shu maqsadda ushbu savolni kiritdik. So‘rovnoma qatnashchilari 160 tadan 60,6 foiz qatnashchilarimiz “Yo‘q, menga ishim yoqadi, vaqt qanday o‘tganini ham sezmay qolaman” deb belgilashgan, bundan ko‘rinadiki, ular ishlaridan mamnun. Respondentlarimizning 39,4 foizi “Ha, ish soatim tezroq tugasayu, tezroq ketsam” deb belgilashgan.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda 2021-yilda ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan aholi soni 1,529,200 tashkil etdi, eng ko‘p ishsizlar Toshkent shahriga to‘g‘ri keldi. O‘zbekistonda 2021-yilning yanvar-sentyabr oylarida ishsizlik darajasi 9,4%ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7%ga, yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4%ga kamaygan. Ishga muhtoj bo‘lganlarning umumiy soni 1,4 mln kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 9,4%ni tashkil etdi. 16-30 yoshgacha bo‘lganlar orasida ishsizlik darajasi 14,9%, ayollar orasida ishsizlik darajasi 12,8% bo‘ldi.

O‘zbekistondagi ishsizlar doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida shuni ko‘rish mumkinki, ishsizlarning asosiy qismini 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi, so‘rovnoma natijasida ishsizlik darajasi bo‘yicha Toshkent shahri 50 foiz bilan dastlabki o‘rinda turdi. (so‘rovnoma bo‘yicha).

So‘rovnomamizda qatnashgan 160 ta respondentlarimizning 41,3 foizini 25 yoshda 30 yosh oralig‘idagi yoshlar tashkil etdi.

Ishsizlik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘ladigan turli xil muammolarni oldini olish maqsadida so‘rovnomamiz natijalarini tahlil qilib chiqib, quyidagi tafsialarni ishlab chiqdik:

- ishsizlar, asosan ishsiz yoshlar jamiyati yoki klublarini tashkel etish;
- ishsizlar o‘z-o‘zini band qilish maqsadida ularga tadbirkorlik ko‘nikmalarini singdirish maqsadida turli xil kurslar, darslar, tadbirlar, master-klasslar, seminar-treninglar tashkil etish;
- ishsiz yoshlarni ishga joylashtirish bo‘yicha turli xil kvotali ish o‘rinlarini tashkil etish;
- mehat bozoridagi ishsizlarning asosiy qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olib, ularda yuzaga keladigan har xil psixologik muammolarni oldini olgan holda, mehnat bozorida

talab yuqori bo'lgan ishchi kasblar, mutaxassisliklarga o'qitish uchun istiqboli yuqori bo'lgan ishchi kasblarni aniqlash, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari, kasb-hunar maktablari sonini oshirish va ularni moliyalashtirish, shuningdek, kasb-hunar maktablari bazasida ishsiz yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun zamonaviy markazlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

- yosh mutaxassislarni ishga qabul qilish tartibini o'zgartirish kerak. Bugungi kunda, endigini universitetni bitirgan mutaxassisdan ko'plab ish beruvchilar ularga nisbatan oshirilgan talablarni qo'yishmoqda, aksariyat tashkilotlash yoshlar mehnatidan foydalanishga ehtiyoj sezishmayapti va natijada ko'plab yoshlarda ishsizlik holati yuzaga kelmoqda. Shuni inobatga olib, ishga qabul qilish me'zonlarini yumshatish, ular uchun moslashuvchan ish grafini tashkil etish maqsadlidir. Chunki, endi bitirgan mutaxassislardan yuqori talab qo'yish, ularning o'z kasbidan sovushiga, ishdan ketib, boshqa ish qidirishga intilish bu vaqt oralig'ida ularning ruhiyatida turli depression holatlar, norozilik kayfiyatini yuzaga keltiradi.

-ishsizlarning ruhiyatida yuzaga kelishi mumkin bo'ladigan turli xil muammolarni oldini olish maqsadida bepul psixologik markazlarni tashkil qilish va ularni qo'llab-quvvatlash lozim.

Ushbu maqolada keltirilgan xulosalar asosida qolgan masalalar bo'yicha istiqbolli ishlarimiz davom etmoqda va kelgusi maqolalarimizda taqdim etib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti-stat.uz
2. [https://nrm.uz/contentf?doc=646642_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_\(2020_yil_29_dekabr\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=646642_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_29_dekabr)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
3. Borrero, Michael (1980) «Psychological and Emotional Impact of Unemployment» The Journal of Sociology & Social Welfare: Vol. 7: Iss. 6, Article 12. Available at: <https://scholarworks.wmich.edu/jssw/vol7/iss6/12>
4. Goldsmith A.H., Veum J.R. Unemployment, joblessness, psychological well-being and self-esteem: theory and evidence //Journal of Socio-Economics. 1997. Vol. 26. № 2. P.133–158.
5. Murphy G.C. va Athanasou J.A. “The effect of unemployment on mental health” March 1999 [Journal of Occupational and Organizational Psychology](#) 72(1):83 – 99 DOI:[10.1348/096317999166518](https://doi.org/10.1348/096317999166518)
6. Robert L. Jin “The impact of unemployment on health: A review of the evidence” [CMAJ](#). 1995 Sep 1; 153(5): 529–540
7. Thoroddur Bjarnason Psychological Distress during Unemployment and Beyond: Social Support and Material Deprivation Among Youth in Six Northern European Countries *Social Science & Medicine* 56 (2003) 973–985 [https://doi.org/10.1016/S0277-9536\(02\)00109-0](https://doi.org/10.1016/S0277-9536(02)00109-0)
8. Kalandar Abdurahmonov Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, T.: 2019.